

**INKLYUZIV OLIY TA'LIMGGA OID KONSTITUTSIYAVIY-
HUQUQIY NORMALAR: AYRIM RIVOJLANGAN XORIJIY
DAVLATLAR TAJRIBASI**

Islomova Iroda Erkin qizi

Toshkent davlat yuridik universitetining magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada inklyuziv oliy ta'limga oid konstitutsiyaviy-huquqiy normalar ayrim rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi asosida tahlil etiladi. Yakunda, mazkur sohani rivojlantirish uchun muallif tomonidan tegishli taklif va xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, huquq, norma, inklyuziv ta'lim.

**КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ НОРМЫ
ИНКЛЮЗИВНОГО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: ОПЫТ
НЕКОТОРЫХ РАЗВИТЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН**

Исломова Ирода Эркин кизи

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: в статье анализируются конституционно-правовые нормы инклюзивного высшего образования на основе опыта некоторых развитых зарубежных стран. В заключение автор дает соответствующие предложения и выводы по развитию данного направления.

Ключевые слова: высшее образование, право, норма, инклюзивное образование.

**CONSTITUTIONAL AND LEGAL NORMS ON INCLUSIVE
HIGHER EDUCATION: EXPERIENCE OF SOME DEVELOPED**

FOREIGN COUNTRIES

Islomova Iroda Erkin kizi

Master's student of Tashkent State University of Law

Abstract: *this article analyzes the constitutional and legal norms on inclusive higher education based on the experience of some developed foreign countries. Finally, the author gives relevant proposals and conclusions for the development of this area.*

Keywords: *higher education, law, norm, inclusive education.*

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning inklyuziv oliy ta'lim sohasidagi ilg'or tajribasini o'rganish mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar samaradorligini oshirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Zero, har bir davlat inklyuziv ta'limga oid siyosatini o'zining konstitutsiyaviy tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda madaniy qadriyatlari asosida shakllantirgan bo'lib, ularni chuqur tahlil qilish orqali O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi va siyosatida mavjud bo'lgan bo'shliqlarni aniqlash, shuningdek, yangi va samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keladi.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda inklyuziv ta'lim, xususan oliy ta'lim darajasida teng imkoniyatlarni ta'minlash masalasi konstitutsiyaviy darajada huquqiy asosga ega. Masalan, AQSH, Finlandiya, Yaponiya va Xitoy kabi mamlakatlarning asosiy qonunlarida nafaqat ta'lim olish, balki oliy ta'limda ham barcha toifadagi shaxslar, shu jumladan imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun

teng huquq va imkoniyatlar kafolatlangan. Bu esa, ushbu mamlakatlarda inklyuziv oliy ta'limning konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan mustahkam asoslangani va davlat siyosatining ajralmas qismi ekanini ko'rsatadi.

Xususan, AQShda inklyuziv oliy ta'limga oid huquqiy asoslar nafaqat federal qonunchilikda, balki konstitutsiyaviy darajada ham mustahkamlangan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi kafolatlar tizimi dunyodagi eng ilg'or modellardan biri sifatida e'tirof etiladi.

AQSh Konstitutsiyasining 14-o'zgartirish moddasida (Fourteenth Amendment) belgilangan "teng huquq va teng huquqiy himoya" tamoyili asos qilib olinadi. Mazkur o'zgartirishning "Equal Protection Clause" deb ataluvchi qismi barcha fuqarolar, jumladan nogiron shaxslar uchun ham huquqiy tenglikni kafolatlaydi: "Hech bir shtat o'z yurisdiksiyasidagi shaxsni qonuniy himoyadan teng ravishda foydalanish huquqidan mahrum qilmaydi" (U.S. Const. amend. XIV, §1) [1]. Mazkur konstitutsiyaviy norma asosida 1954-yilda tarixiy Brown v. Board of Education qarori qabul qilinib, irqiy kamsitishga qarshi, keyinchalik esa nogiron shaxslarning ta'limdagi teng huquqlarini huquqiy jihatdan tan olishga asos yaratgan [2].

Shunigdek, mazkur davlatda inklyuziv oliy ta'lim olish, 1990-yildagi "Amerikaliklar nogironligi to'g'risida"gi qonun (Americans with Disabilities Act – ADA), 1990-yilda qabul qilingan “

Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'limi to'g'risida"gi qonun (Individuals with Disabilities Education Act (IDEA)) hamda 1990-yilda qabul qilingan "Amerikaliklar nogironligi to'g'risida"gi qonun (Americans with Disabilities Act – ADA) asosida tartibga solinadi.

Nogiron talabalar uchun teng sharoitni huquqiy jihatdan kafolatlaydigan asosiy qonun bu 1990-yilgi “Amerikaliklar nogironligi to‘g‘risida”gi qonun bo‘lib, ushbu qonunning II sarlavhasi davlat universitetlari, III sarlavhasi esa xususiy oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini qamrab oladi. II sarlavhaga ko‘ra, “Hech bir nogiron shaxs [...] davlat universitetlarining xizmatlari, dasturlari yoki faoliyatidan foydalanish huquqidan faqat nogironligi sababli mahrum qilinishi mumkin emas”. III sarlavha esa nogiron shaxslar jamoat binolari, shu jumladan xususiy universitetlar xizmatidan to‘liq va teng foydalanish huquqiga ega ekanligini huquqiy jihatdan belgilab bergan [3].

Shu bilan bir qatorda, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta‘limi to‘g‘risida”gi qonunning 20-moddasida “Nogiron bolalar uchun ularning individual ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan, maxsus ta‘lim xizmatlarini o‘z ichiga olgan bepul davlat ta‘limini ta‘minlash” vazifasi belgilangan. Bu qonun asosan maktabgacha va o‘rta ta‘lim bosqichlariga qaratilgan bo‘lsa-da, ushbu qonun nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularni oliy ta‘limga va kasbiy faoliyatga tayyorlashni ko‘zda tutadi.

Finlyandiyada inklyuziv oliy ta‘limga oid huquqiy asoslar davlatning konstitutsiyaviy tamoyillari va sohaga oid maxsus qonun hujjatlari orqali mustahkamlangan. Finlyandiya Respublikasi Konstitutsiyasining 16-bo‘limida har bir insonning ta‘lim olish huquqi bevosita konstitutsiyaviy norma sifatida belgilangan bo‘lib, ushbu huquq doirasida, umumiy bepul ta‘lim olish, oliy ta‘limga kirish imkoniyati va oliy ta‘lim erkinligi kafolatlanadi. Xususan, Konstitutsiyaning 16-bo‘limining uchinchi qismida quyidagicha norma mustahkamlangan: “Fan, san’at va oliy ta‘lim erkinligi kafolatlanadi”.[4]

Ushbu konstitutsiyaviy kafolatlar inklyuzivlik tamoyiliga bevosita daxldor bo'lib, ular asosida har bir shaxs, shu jumladan nogironligi bo'lgan fuqarolar uchun ham oliy ta'limga erkin kirish imkoniyati huquqiy jihatdan ta'minlangan. Ushbu umumiy kafolatlar 1998-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi asosiy qonun (Basic Education Act, 628/1998), 2009-yildagi "Universitetlar to'g'risida"gi qonun (Universities Act (558/2009), 2014-yildagi "Amaliy fanlar universitetlari to'g'risida"gi qonun (Universities of Applied Sciences Act (932/2014)) hamda 2014-yil 30-dekabrda qabul qilingan "Kamsitmaslik to'g'risida"gi qonun (Non-Discrimination Act (1325/2014)) asosida mustahkamlangan bo'lib, imkoniyati cheklangan shaxslarni barcha bilan teng asoslarda oliy ta'lim olishini va jamiyatda mustaqil shaxs sifatida faoliyat olib borishini ta'minlamoqda.

Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi asosiy qonunning 46-moddasida barcha shaxslarga, ularning jismoniy imkoniyatlaridan qat'i nazar, ta'lim olish huquqi masofaviy (distantion) shaklda qisman yoki to'liq amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan. Bu esa nogironligi bo'lgan shaxslarning o'qishga jismonan kelolmaslik holatlarini inobatga olgan holda ularga qulay va moslashuvchan ta'lim olish imkoniyatlarini kafolatlaydi [4].

Shuningdek, Finlyandiya oliy ta'lim tizimida barcha oliy o'quv yurtlari davlat siyosatiga muvofiq ravishda inklyuzivlik tamoyilini amalga oshiradi. Nogiron shaxslarning o'qishga kirish jarayonida, o'qish davomida va dasturlarni tugatishda duch keladigan muammolarni bartaraf etish uchun har bir oliy ta'lim muassasasida zarur texnik va pedagogik imkoniyatlar yaratiladi. Bular qatoriga binolarni moslashtirish, o'quv materiallarini vizual va audio shakllarda taqdim etish, maxsus vositalar bilan ta'minlash, individual o'qitish yondashuvlari va

talabalarni psixologik-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kiradi.

Finlyandiyada inklyuziv ta'lim siyosati nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'limga bo'lgan huquqlarini nafaqat deklarativ darajada, balki amalda ham amalga oshirishga qaratilgan kompleks huquqiy va institutsional choralar bilan kafolatlangan. Xususan, "Kamsitmaslik to'g'risida"gi qonunning 15-moddasida ta'lim tashkilotlari tomonidan nogiron shaxslar uchun zarur moslashuvchan choralarini ko'rish majburiyati belgilangan. Ushbu choralar infratuzilmaviy qulayliklar yaratish, o'quv materiallarini individual ehtiyojlarga moslashtirish, baholash tizimida imtiyozli shartlarni joriy etishni o'z ichiga oladi [5].

Mazkur tajribani O'zbekiston qonunchiligi bilan solishtirilganda, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasida inklyuziv ta'lim tushunchasi mustahkamlangan bo'lib, u inklyuziv ta'limni barcha ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlar asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, mazkur modda inklyuziv ta'limning tartibini belgilash vakolatini Vazirlar Mahkamasiga yuklaydi, bu esa amaliyotni huquqiy jihatdan to'liq tartibga solish imkonini beradi. Qonun shuningdek, jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlarga ega bo'lgan shaxslar uchun alohida ehtiyojlarni hisobga olgan holda ta'lim olish imkonini kafolatlaydi.[6]

Osiyo mintaqasidagi taraqqiy etgan davlatlar ichida Yaponiya va Xitoyda inklyuziv oliy ta'limni huquqiy jihatdan tartibga solish masalasi bosqichma-bosqich konstitutsiya va qonunlar asosida mustahkamlanib bormoqda. Ikkala mamlakat ham Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasini ratifikatsiya qilgan bo'lib, ushbu xalqaro majburiyatlar ularning ichki ta'lim siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Yaponiya Konstitutsiyasining 26-moddasida har bir fuqaroning ta'lim olish huquqi va burchi aniq belgilab qo'yilgan. Ushbu modda quyidagicha ifodalanadi: "Barcha insonlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'z huquqlaridan foydalanib teng ta'lim olish huquqiga ega" [7].

Xitoy Xalq Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasida davlat nogiron fuqarolarni ta'lim, mehnat va ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlash majburiyatiga ega ekani belgilangan. 46-moddada esa barcha fuqarolar uchun ta'lim olish huquqi va majburiyati konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlangan [8]. Ushbu normalar asosida 1990-yilda qabul qilingan va 2008-yilda yangilangan "Nogiron shaxslarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi"[9] qonun (Law on the Protection of Disabled Persons) Xitoyda inklyuziv ta'lim siyosatining huquqiy asosini tashkil qiladi. Qonunning 21-moddasida davlat nogiron shaxslarning ta'lim olish huquqini kafolatlash, ular uchun barcha ta'lim bosqichlarida shart-sharoitlar yaratish majburiyatini olganligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi bu borada muhim huquqiy qadamlar tashlagan davlatlar qatoridan o'rin olmoqda. 2023-yilgi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 51-moddasiga muvofiq, "har bir shaxs davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida, davlat hisobidan oliy ma'lumot olish huquqiga egadir" [10]. Ushbu norma oliy ta'limga bo'lgan huquqni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab, uning universalligini ta'minlaydi va shu orqali nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ham ta'lim olishda tenglikka asoslangan imkoniyatlarni kafolatlaydi.

Mazkur huquqiy asos konstitutsiyaning 50-moddasi bilan yanada mustahkamlangan bo'lib, ushbu moddaga asosan ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya

ta'minlanishi nazarda tutilgan bo'lib, ushbu konstitutsiyaviy kafolat inklyuziv yondashuvni uzluksiz ta'lim tizimi darajasida – maktabgacha, maktab va oliy ta'lim bosqichlarida amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi [11].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu normaning konstitutsiyaviy darajada belgilanishi, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun oliy ta'limga kirish va undan foydalanish imkoniyatlarini huquqiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa ijtimoiy tenglik tamoyilini hayotga tatbiq etish, imkoniyati cheklangan, ammo iqtidorli yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda to'laqonli ishtirokini ta'minlash, ularning bilim va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv jamiyat ehtiyoji yuqori bo'lgan sohalarda nogiron shaxslarning malakali kadr sifatida shakllanishini qo'llab-quvvatlaydi va ularning mehnat bozorida bandligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv oliy ta'lim sohasida xorijiy tajribani o'zlashtirish O'zbekistondagi huquqiy-tashkiliy to'siqlarni kamaytirish, imkoniyati cheklangan yoshlar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish hamda milliy ta'lim tizimining xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Constitution of the United States (Adopted September 17, 1787; Implemented March 4, 1789; Amendments I-XXVII). <https://constitution.congress.gov/browse/amendment-14/>.
2. Brown v. Board of Education of Topeka, 347 U.S. 483 (1954). <https://supreme.justia.com/cases/federal/us/347/483/>.

3. Americans with Disabilities Act of 1990 (ADA) – Full Text (U.S. Department of Justice).
4. Constitution Act of Finland (731/1999).
https://www.constituteproject.org/constitution/Finland_2011.
5. Basic Education Act (628/1998).
<https://finlex.fi/en/legislation/translations/1998/eng/628>.
6. Non-Discrimination Act (1325/2014) – Finlex Official Translation.
<https://finlex.fi/en/laki/kaannokset/2014/en20141325>.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.02.2024-y., 03/24/901/0082-son.
8. The Constitution of Japan, Article 26. English translation provided by the Japanese Law Translation Bureau. Available at:
<https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/174>.
9. Constitution of the People's Republic of China, Articles 45–46. Official English version by the Chinese Government. Available at:
https://english.www.gov.cn/archive/lawsregulations/201911/20/content_WS5ed8856ec6d0b3f0e9499913.html.
10. Law of the People's Republic of China on the Protection of Disabled Persons (revised 2008), Article 21. English text by United Nations.
11. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023 – <https://lex.uz/docs/-6445145>).